

JADIDLAR NASHR QILGAN GAZETALARDA XOTIN-QIZLAR TA'LIMI MASALASI

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

Karimboyeva Rohila

Tarix yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlari Turkiston ma'rifatparvarlik harakati — jadicilik namoyandalarining xotin-qizlar ta'limiga oid qarashlari va ularning matbuotdagi in'ikosi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida “Oyna”, “Sadoi Turkiston” va “Taraqqiy” kabi nashrlarda chop etilgan maqolalar asosida ayollar savodxonligining millat taraqqiyotidagi o'rni yoritib berilgan. Muallif jadicilar tomonidan ilgari surilgan “oila ma'rifati” konsepsiyasini o'rganadi va o'sha davrdagi ijtimoiy to'siqlarga qaramay, ayol qalamkashlarning matbuotda paydo bo'lish jarayonini tadqiq etadi. Maqola yakunida jadicilar merosining bugungi kun ta'lim tizimi va gender tengligi masalalaridagi tarixiy ahamiyati bo'yicha xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Jadicilik, matbuot, xotin-qizlar ta'limi, Turkiston, jadic gazetari, ma'rifatparvarlik, “Oyna” jurnali, ijtimoiy islohotlar.

Аннотация: В данной статье анализируются взгляды представителей джадидизма — просветительского движения Туркестана начала XX века — на образование женщин и их отражение в периодической печати. На основе публикаций в таких изданиях, как “Ойна”, “Садои Туркистон” и “Тараккий”, освещается роль женской грамотности в развитии нации. Автор исследует концепцию “семейного просвещения”, выдвинутую джадидами, и изучает процесс появления женщин-публицистов в прессе, несмотря на социальные барьеры того времени. В завершение статьи представлены выводы об исторической значимости наследия джадидов для современной системы образования и вопросов гендерного равенства.

Ключевые слова: Джадидизм, пресса, женское образование, Туркестан, джадидские газеты, просветительство, журнал “Ойна”, социальные реформы.

Kirish.

Insoniyat tarixining burilish nuqtalarida har qanday millatning istiqboli uning madaniy va ma’rifiy darajasi bilan belgilangan. XX arsda Turkiston o’lkasi Chor Rossiyasiga qaramlik davrini boshdan kechirmoqda edi. Ushbu davrning eng og’riqli masalasi bu-ta’lim, ushbu davrda ta’lim sohasida ma’lum bir tizimning o’zi yo’qligi edi. Shunday tarixiy sharoitda xalqning og’ir ijtimoiy holatini to’g’ri baholagan holda bu jarayonga yechim topa olgan oqim jadidlar oqimi paydo bo’ldi. XX asr boshlarida Turkiston o’lkasida bo’y ko’rsatgan jadidchilik harakati nafaqat siyosiy islohotlar, balki chuqur ijtimoiy yangilanishlar bayroqdori bo’lib maydonga chiqdi. Jadidlar xalq savodli qilish va ularning siyosiy ongini oshirish maqsadida bir qator tadbirlarni amalga oshirishdi. Jadid ziyolilari millatni asoratdan va jaholat botqog’idan qutqarishning yagona chorasini ma’rifatda ko’rdilar. Biroq, ular tushunib yetgan eng muhim haqiqat shundan iborat ediki — jamiyatning yarmini tashkil etuvchi xotin-qizlarni ilmsiz qoldirish millatning kelajagini so’roq ostida qoldirish bilan barobardir.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda gender tengligi va xotin-qizlar ta’limi masalasi davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan bir davrda, bu harakatning tarixiy ildizlarini o’rganish katta ahamiyat kasb etadi. Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdurauf Fitrat kabi jadid namoyandalari xotin-qizlar ta’limini shunchaki savodxonlik emas, balki millat tarbiyasining asosi deb hisoblaganlar.

Tadqiqotning muammosi o’sha davrdagi mavjud diniy xurofotlar, eski maktab tizimidagi qoloqlik va jamiyatning konservativ qatlamlari tomonidan qizlar ta’limiga bo’lgan qarshiliklarni tahlil qilishdan iborat. Jadidlar o’z g’oyalarini xalqqa yetkazishda eng samarali vosita sifatida matbuotdan foydalandilar.

Maqolaning maqsadi — “Oyna”, “Sadoi Turkiston” va “Taraqqiy” kabi jadid nashrlari sahifalarida xotin-qizlar ta’limi masalasi qanday yoritilganini, ma’rifatparvarlarning bu boradagi qarashlari va matbuot orqali jamiyat ongiga ta’sir ko’rsatish usullarini ochib berishdir.

Adabiyotlar sharhi

Jadidchilik harakati va uning ma'rifatparvarlik g'oyalari o'zbek tarixshunosligida keng o'rganilgan mavzulardan biridir. Xususan, jadid matbuoti tarixi va uning ijtimoiy funksiyalari B.Qosimov, S.Xolboyev va N.Avazov kabi olimlarning tadqiqotlarida atroflicha tahlil qilingan. Biroq, xotin-qizlar ta'limi masalasining aynan gazeta sahifalaridagi evolyutsiyasi masalasiga ixtisoslashgan tadqiqotlar nisbatan kamchilikni tashkil etadi. Chet ellik tadqiqotchilardan Adeeb Khalid o'zining "The Politics of Muslim Cultural Reform" asarida jadidlarning ijtimoiy islohotlariga to'xtalar ekan, ayollar masalasini jamiyat modernizatsiyasining ajralmas qismi sifatida baholaydi. Mazkur maqola ushbu qarashlarni tizimlashtirish va yangi arxiv ma'lumotlari bilan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar metodologiyasi

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. XX asr boshidagi turli jadid nashrlari "Oyna", "Sadoi Turkiston" sahifalaridagi xotin-qizlar masalasiga doir qarashlar o'zaro qiyoslandi. Mazmun tahlili metodidan gazeta va jurnallarda chop etilgan maqola, felyeton va maktublarning mazmuni tahlil qilinib, asosiy g'oyaviy yo'nalishlar aniqlandi. Xronologik yondashuv metodidan mavzuning vaqtlar kesimidagi rivoji va jadid ziyolilarining qarashlari o'zgarib borishi izchillik bilan o'rganildi. Birlamchi manbalar bilan ishlash metodida asosan, tadqiqotning asosi sifatida 1913-1917-yillarda chop etilgan matbuot nashrlarining arxiv nusxalari xizmat qildi.

Tahlil va natijalar

Jadidlar xotin-qizlar masalasini millatning hayot-mamot masalasi deb bilishgan. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy bu borada "Millatni ma'rifat saodati sari olib boruvchi kuch – ilm va ayol tarbiyasidir" degan fikrni ilgari surgan. Bu g'oyani rivojlantirgan Abdurauf Fitrat esa "Ayollarni o'qitmasak, millatning yarmi zulmatda qoladi" deya ogohlantirgan. Bu faqat nazariya bo'lib qolmay, amaliy harakatlarga ham ulandi: Munavvarqori Abdurashidxonov ayollar ta'limi uchun maxsus dasturlar ishlab chiqib, Toshkentda qizlar uchun yangi usuldagi maktab ochdi. Albatta, jadidlarning ayollarga bo'lgan bu e'tibori o'sha davrda katta jasorat talab qilgan, chunki diniy aqidaparastlar

bunday yangiliklarni “an’anaga zid” deb baholagan. Shunga qaramay, ma’rifatparvarlar o‘z maqsadlaridan chekinmay, xalqni ma’rifat sari yetaklashda davom etdilar.¹

Ushbu davrda jadid matbuoti, xususan “Sadoi Turkiston” gazetasi nafaqat axborot beruvchi, balki jamiyatni isloh qiluvchi kuchga aylangan. Ushbu gazeta o‘z nashrlarida ayollar ta’limi sohasini odilona ravishda yoritib, xalqni ayollarning ta’limiga jalb qilib, ularni bu jarayonga undagan. “Sadoi Turkiston” gazetasi jadid publitsistlari ayollarning huquqiy maqomini diniy va insoniy jihatdan asoslab berganlar. Z. Fathiddinzoda tomonidan ilgari surilgan “Insoniyat olamining tirikchiligi yolg‘iz xotunlar soyasidandir” g‘oyasi o‘sha davr uchun inqilobiy xarakterga ega edi. Muallif diniy manbalarga tayanib, ilm olishda erkak va ayol o‘rtasida musovat (tenglik) borligini isbotlagan. Xususan, Z. Fathiddinzoda ayolni “millat onasi” darajasiga ko‘targan. So‘fizoda va Tavallo kabi shoirlar she’riyat tili bilan otalarni qizlarini o‘qitishga undagan. Jadid maktablari xalq ishonchini qozonish uchun “ochiq eshiklar” tamoyilidan foydalangan. Misol uchun, 1914-yilgi “Rahimiya” maktabidagi ochiq imtihonlar esa usuli jadid tizimining xalq orasida ishonch qozonishiga xizmat qilgan muhim pedagogik hodisa bo‘lgan.²

Xulosalar va takliflar

O‘tkazilgan tadqiqotlar va jadid matbuoti tahlili natijasida Turkiston ma’rifatparvarlarining xotin-qizlar ta’limi borasidagi faoliyati milliy taraqqiyotning strategik asosi bo‘lganligi aniqlandi. Jadidlar ayol tarbiyasini millat tarbiyasining asosi deb bildilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat kabi ziyolilarning “bilimli ona – barkamol avlod” konsepsiyasi bugungi kunda O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasidagi islohotlar bilan g‘oyaviy jihatdan hamohangdir. 1914-yildagi “Rahimiya” maktabi misolida ko‘rganimizdek, jadidlar nazariy g‘oyalarni ochiq imtihonlar va yangi usul maktablari orqali amaliyotga tatbiq etdilar. Bu jarayon jamiyatdagi konservativ qarashlarni o‘zgartirishda eng samarali mexanizm bo‘lib xizmat qilgan. “Sadoi Turkiston” va boshqa jadid nashrlari xotin-qizlar masalasini ijtimoiy kun

¹ Qlicheva G. Ch. Jadidlarning ayollar ta’limiga oid qarashlari va ularning bugungi ta’lim siyosatida tutgan o‘rni // International online conference. – 2025-10-16. – 84-88betlar

² Uljaeva Sh. “Sadoi Turkiston” gazetasida xotin qizlar masalalarining yoritilishi // O‘zbekiston tarixi-2017-07-29.

tartibiga olib chiqishda asosiy platforma vazifasini bajargan. Shoir va publitsistlarning badiiy chiqishlari esa aholining hissiy va mantiqiy dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Jadid muallimlarining fidoyilik namunalari bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh pedagoglar uchun maxsus metodik qo'llanmalar va darsliklarda o'rnak sifatida kiritilishi lozim. Mintaqaviy matbuot sahifalarida xotin-qizlar ta'limiga doir hali o'rganilmagan maktub va maqolalarni raqamlashtirish va ularni umummilliy media-platformalarga joylashtirish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda xotin-qizlar ta'limini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat dasturlarida jadidlarning "oilaviy ma'rifat" metodikasidan (ota-onalarni o'qitish orqali qizlarni maktabga jalb qilish) foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
3. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
4. Qlicheva G. Ch. Jadidlarning ayollar ta'limiga oid qarashlari va ularning bugungi ta'lim siyosatida tutgan o'rni. International online conference. – 2025-10-16. – 84-88-betlar
5. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoiylik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
6. Uljaeva Sh. "Sadoi Turkiston" gazetasida xotin qizlar masalalaring yoritilishi//O'zbekiston tarixi-2017-07-29.
7. "Sadoi Turkiston" gazetasi materiallari (1914–1917-yillar to'plami).
8. "Oyna" jurnali sonlari (1913–1915-yillar).
9. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – University of California Press, 1998.